

PEDOGOKIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Ibragimova Manzura Maxmasiddiq qizi

e-mail:ibragimovamanzora@gmail.com

Tel: +998994838206

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Xayrullayrva Dilnoza Narzullayevna

Tel: +998333071306

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Pedagogik fikrlarning qadimgi sivilizatsiyalar davridan boshlab hozirgi zamon ta'lim tizimigacha bo'lgan taraqqiyoti tahlil qilinadi. Shuningdek, Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, pedagogika fanining mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanish jarayonlari ham ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekiston mustaqillik davrida pedagogika sohasida amalga oshirilgan islohotlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ham alohida o'rin olgan. Tadqiqot natijasida pedagogika fanining tarixiy ildizlari, uning rivojlanish qonuniyatlari hamda bugungi ta'lim jarayonidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogika, zardushtiylik, Avesto, Qutayba, Turkiston, Komil Xorazmiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, komil inson.

Abstract. This article highlights the stages of formation and development of the science of pedagogy. It analyzes the evolution of pedagogical thought from ancient civilizations to the modern education system. The views of Eastern and Western thinkers on education and upbringing, as well as the process of pedagogy's establishment as an independent scientific discipline, are also discussed. The article pays special attention to the

educational reforms implemented in Uzbekistan during the period of independence and the importance of modern pedagogical technologies. The study substantiates the historical roots of pedagogical science, its development patterns, and its role in today's educational process.

Keywords: Pedagogy, Zoroastrianism, Avesta, Qutayba, Turkestan, Komil Khorezmi, Behbudi, Abdulla Avloni, perfect person.

Аннотация. В данной статье освещены этапы формирования и развития педагогической науки. Анализируется эволюция педагогической мысли от древнейших цивилизаций до современной системы образования. Также рассматриваются взгляды восточных и западных мыслителей на вопросы воспитания и образования, а также процесс становления педагогики как самостоятельного научного направления. В статье особое внимание уделено реформам в сфере педагогики, проведённым в Узбекистане в период независимости, и значению современных педагогических технологий. В результате исследования обоснованы исторические корни педагогической науки, закономерности её развития и роль в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогика, зороастризм, Авеста, Кутайба, Туркестан, Комил Хоразмий, Бехбудий, Абдулла Авлоний, совершенный человек.

Kirish: Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keladi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Binobarin, mustaqillik tufayli, qadimiy Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi. Ayni paytda o'zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va

rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy etib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy-nazariy, falsafiy-tarbiyaviy haqiqatdir. O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminlarda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham pedagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan. Biroq islomgacha bo'lgan davr tarbiyashunoslik, fan va madaniyat tarixini yoritish imkoniyati cheklangan. Chunki Qutayba rahbarligida arab istilochilari olib borgan janglar, talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yo'q qilib yuborilgan. Ammo islom va undan keyingi davrlarda mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.

Asosiy qism. Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy formatsiya — quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo'ldi hamda moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, Qadimgi Yunoniston (Gretsiya) xalqlari bu madaniyatni ma'lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdilar va butun jahon madaniyatiga, ma'rifatiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha hissa qo'shganlar. Masalan, Xitoyda birinchi marta qog'oz ixtiro qilingan, Hindistonda hisoblashning o'nlik sistemasi kashf etilgan, Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topilgan (graduslar ham, soatlar

ham hisoblashning oltilik tizimiga asoslangan). Eramiz boshidan oldin Markaziy Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurilgan. So'ngra Markaziy Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon "Buyuk ipak yo'li" ochilgan. Natijada Markaziy Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo'lib qolgan. VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan bosqichma-bosqich rivojlana bordi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish keskin ortib bordi. O'sha tarixiy davrda al-Xorazmiy, Forobiy, al-Farg'oniy, ad-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamakhshariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi. Ilm bilan yonma-yon dunyoviy ilmlar tug'ildi. Ushbu ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarini o'stirishda o'z davrida va keyinchalik ham asosiy rol o'ynadilar, inson kamolotiga doir beqiyos ta'limotni yaratdilar. XV–XVI asrlarga kelib qadimiy Turkiston jahon-ga Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, A. Navoiy, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon singari allomalarni voyaga yetkazdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Demak, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq-odobga oid qarashlari, pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahon-ga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan. 1917 yilda esa Turkiston mintaqasida "yashin tezligida" Sho'ro hokimiyati o'rnatila boshlandi. Bu tuzum kommunistik firqa mafkurasini targ'ib va tashviq qildi.

Pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri komil inson g'oyasi bo'lib, komil inson xarakteri va xulq-atvori haqida Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Husayniy, Imom at-Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Nodira, Komil Xorazmiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa allomalar o'z asarlarida

muhim fikrlarni bayon etganlar. Buyuk mutafakkir-pedagoglarimiz talqin etgan komil inson xususiyatlari, ezgu va odil xislatlarni sanab adog'iga yetkazish qiyin, ammo ular bu xislatlarni uchta fazilatga jam qilganlar: saxovat, sadoqat va vafodorlik. Saxovat — bor narsani hech kimdan qizg'anmaslik, sadoqat — qalbni kibru-havo, gina-qudrat, hasad va yovuzlikdan poklash, vafodorlik esa — har doim xalq xizmatida bo'lishdir. Saxovat faqat moddiy yordam bilan emas, balki ruhiy yordam, mehr bilan ham namoyon bo'ladi. Safolik (poklik) — inson qalbining nur bilan to'lishidir, vafolik esa o'zgalar baxtidan xursand bo'lishdir. Demak, komil inson o'z xarakteri, axloqi va odobi bilan boshqalarga o'rnak bo'ladi, ularni tarbiyalaydi, ularga baxt ato etadi. Insonning xarakteri va odob-axloqi tarbiya bilan shakllanadi, xarakter tarbiya orqali mukammallashtirish, komillik bo'lmaydi. Mutafakkirlar fikricha, insonda besh xil qalb mavjud: o'lik qalb — hech narsaga intilmaydigan qalb; xasta qalb — yangilikka havas bor, lekin intilmaydi; g'ofil qalb — onglilik nuridan bebahra qalb; uyg'oq qalb — nuri bor, lekin bu nurga ehtiyoj sezadigan qalb; tirik qalb esa — o'z baxtini topgan va boshqalarga ham shu baxtni ulashadigan qalbdir. Komil inson ana shunday tirik qalb sohibidir. U ulug' xarakter egasi bo'lib, ezgu fazilatlar bilan yuksak darajaga erishadi. Shu bois, biz milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani tarbiya jarayonida qo'llashda har bir yosh avlodning qalbi, ongi va shuuridagi tuyg'ularni shakllantirishga, qalbi va ongini yot unsurlardan asrashga, undagi ezgu niyatlarni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berishimiz kerak. Komil inson g'oyasi — milliy, ma'naviy va umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan, odam zotga xos eng yuksak ruhiy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan g'oyadir.

Xulosa. Pedagogika fanining rivojlanish tarixi insoniyatning ma'naviy, madaniy va ilmiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir davrda ta'lim va tarbiya tizimi jamiyat ehtiyojlari asosida shakllanib, mukammallashtirib borgan. Qadimgi davr allomalari — Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy kabi mutafakkirlarning g'oyalari hozirgi zamon pedagogikasining ilmiy asosini

tashkil etadi. Mustaqillik davrida esa milliy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar uyg'unlashib, ta'lim tizimining yangi bosqichini yaratdi. Shu bois pedagogika fani doimiy izlanish va takomillashuv jarayonida bo'lib, insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayubjonov A. Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda pedagogika fanining o'rni. Iqtisodiyot va ta'lim, 2002 yil 3-son 126- 129-betlar.
2. Voinova M.G., Axrarova G.P., Pedagogika.Uchebnoe posobie. - T.: TDYuI, 2006.
3. G'aybullaev N.R., Yodgorov R, Mamatqulova R, Pedagogika. O 'quv qo'llanma. -T .: O 'ZMU, 2005
4. Ziyo Muxamedov B. Pedagogika. -T .: "Turon-Iqbol", 2006.
5. Ziyo Muxamedov B. Komillikka eltuvchi kitob. -T .: "Turon-iqbol", 2006